


## I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilning yanvar-iyunida Qashqadaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda –YAHM) hajmi joriy narxlarda 25 911,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning yanvar-iyuni bilan taqqoslaganda 4,3 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2022-yilning yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 114,2 % ni tashkil qildi.


O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Qashqadaryo viloyatining qo'shgan hissasi 5,5 % ga yetdi.



## Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

		Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2022- yil	2023- yil	
	<b>I. YAHM</b>	<b>21 749,6</b>	<b>25 911,9</b>	<b>104,3</b>
	shu jumladan:			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	20 677,0	24 857,6	104,2
	Mahsulotlarga sof soliqlar	1 072,6	1 054,3	105,6
	<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>20 677,0</b>	<b>24 857,6</b>	<b>104,2</b>
	<b>Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>7 579,8</b>	<b>8 935,7</b>	<b>102,6</b>
	<b>Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>5 201,0</b>	<b>6 360,6</b>	<b>106,3</b>
	sanoat	3 789,6	4 666,9	106,6
	qurilish	1 411,4	1 693,7	105,3
	<b>Xizmatlar</b>	<b>7 896,2</b>	<b>9 561,3</b>	<b>104,5</b>
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 502,1	1 753,4	103,4
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 164,5	1 375,4	105,2
	boshqa xizmat tarmoqlari	5 229,6	6 432,5	104,6

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 7 405,5 ming soʻmni tashkil etdi va bu koʻrsatkich oʻtgan yilga nisbatan 2,0 % ga yuqoridir.





Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qoʻshilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 95,9 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 4,1 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligining YAHMning tarmoqlar boʻyicha tarkibidagi ulushi 35,9 % ni, sanoat tarmogʻi 18,8 % ni, qurilish 6,8 % ni va xizmatlar sohasi 38,5 % ni tashkil qildi.

### Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2022- yil	2023- yil
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	95,1	95,9
mahsulotlarga sof soliqlar	4,9	4,1
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>36,7</b>	<b>35,9</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>25,1</b>	<b>25,6</b>
sanoat	18,3	18,8
qurilish	6,8	6,8
<b>xizmatlar</b>	<b>38,2</b>	<b>38,5</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7,3	7,1
tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,6	5,5
boshqa xizmat tarmoqlari	25,3	25,9

## Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)





● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHMning o‘shishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o‘shish sur‘atlari bilan bog‘liqdir. O‘shish sur‘atlari qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 102,6 % (YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi – 35,9 %), sanoatda – 106,6 % (18,8 %), qurilishda – 105,3 % (6,8 %), xizmatlar sohasida – 104,5 % ni (38,5 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o‘shish sur‘atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda 103,4 % (7,1 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 105,2 % (5,5 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 104,6 % dan (25,9 %) iborat bo‘ldi.


### Yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mutlaq o‘shish sur‘atlari (o‘tgan yilga nisbatan % da)






YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i – 0,9 f.p. (2022- yilning yanvar-iyunida – 1,2 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,2 f.p. (2022- yilning yanvar-iyunida – 1,0 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,3 f.p. (2022- yilning yanvar-iyunida – 0,1 f.p.) va xizmatlar sohasi - 1,6 f.p. (2022- yilning yanvar-iyunida – 1,4 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,3 f.p. (2022- yilning yanvar-iyunida – 0,4 f.p.) ga ko'paydi.

2023- yilning yanvar-iyunida YAHM o'sishida  
tarmoqlarning hissasi  
(jamiga nisbatan % da)



2023-yil yanvar-iyun oyi uchun YAHM deflyatori indeksi 2022-yil yanvar-iyun oylaridagi narxlarga nisbatan 114,2 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari xizmatlar sohasida – 115,9 % va sanoatda – 115,5 % qayd etildi.

### Yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilga nisbatan % da)



### Yanvar-iyun oylarida kichik biznesning YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

2023- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 64,7 %ni tashkil qildi (2022- yilning yanvar-iyunida – 66,1 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

